

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)
Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тилипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Сардорбек Усмонхуджаевич
доктор философии по социологическим наукам, доцент
(Узбекистан)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Alikariyev Nuriddin OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI MEHNAT SAMARADORLIGINING TAHLILI.....	4
2. Parmanov Farxod, Xudayarov Ixomjon SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI.....	12
3. Турсунов Диёр, Сеитов Азамат ВЛИЯНИЕ ИНТЕРНЕТ-СМИ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ СОЦИАЛИЗАЦИЮ (НА ПРИМЕРЕ ПРОТЕСТОВ В РОССИИ 2017-2018 ГОДА).....	19
4. Sog'inov Nurmat AMALIYOTCHI PSIXOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	29
5. Zaitov Elyor MAHALLANING O'RGANILISHIDA TARIXIY YONDASHUV.....	38
6. Алексеева Виктория СОЦИАЛЬНАЯ МОБИЛЬНОСТЬ ЖЕНЩИН В УСЛОВИЯХ ФОРМИРУЮЩЕГОСЯ ГЕНДЕРНОГО ПОРЯДКА ДОСТИЖЕНИЯ РАВЕНСТВА.....	49
7. Kayumov Kaxramon DEVIANT HULQ-ATVOR PROFILAKTIKASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	57
8. Abdullaev Akmal Gadaymurodovich SIVILIZATSION YONDASHUV SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARNING METODOLOGIK BAZASI SIFATIDA.....	63
9. Mahammadjanov G'olibjon GLOBALLASHUV DAVRIDA JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUV JARAYONLARI (Sinergetik yondashuv).....	71
10. Qozoqov Sobirjon O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOIIY OMILLARI.....	76
11. Нуруллаева Джамиля СПОРТ КАК СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ.....	83
12. Mahammadjanov G'olibjon JAMIYATDA IJTIMOIIY ONG TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR: SOTSIOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL.....	90

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Parmanov Farxod,

O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruv akademiyasi
“Boshqaruv sotsiologiyasi va psixologiyasi” kafedrası
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Xudayarov Ilhomjon,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

SOTSIAL MOBILLIK PARADIGMASINING ETNOMADANIY INTEGRATSIYALASHUV TENDENSIYALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.11052523>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sotsial mobillik paradigmasida etnomadaniy o‘zgarishlarning son va sifat ko‘rsatkichlari uni determinlashtiruvchi obyektiv shart-sharoit va subyektiv omillar ta‘siriga bog‘liq bo‘lib, jarayonni harakatlantiruvchi mexanizmlari, vosita va natijalarini ichki va tashqi, mikro va makro darajalarga ajratish shartli va nisbiy xarakterga ega. Shuning uchun, hozirgi global integratsiyalashuv jarayonida xorijiy migrantlarning yangi jamiyat stereotiplariga ko‘nikish mexanizmlarini, har ikki tomonga ham manzur bo‘ladigan o‘zaro yaqinlashuv, milliy-madaniy qadriyatlar integratsiyasi nuqtalarini topish va ularda “adaptatsiya potensialini” shakllantirish usul va vositalarini takomillashtirish zaruriyati bu jarayonlarning nazariy-metodologik asoslarini yaratishni taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: sotsial mobillik, paradigma, etnomadaniy integratsiya, mobillik shkalasi, intellektual sig‘imi, adaptatsiya potentsiali, mobillik intensivligi, umumsotsiologik qonuniyat, ko‘nikish effekti.

Парманов Фарход,

Академия государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан
кафедра «Социология и психология управления»
доктор социологических наук (DSc), доцент

Худаяров Ильхомжон,

докторант Наманганского государственного университета

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ПАРАДИГМЫ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Количественные и качественные показатели этнокультурных изменений в парадигме социальной мобильности зависят от влияния объективных условий и субъективных факторов, определяющих ее, а также разделения механизмов, приводящих процесс, инструментов и результатов на внутренние и внешние микро и макроуровни, но эта зависимость условна и относительна. Поэтому в процессе современной глобальной интеграции возникает необходимость совершенствования механизмов привыкания иностранных мигрантов к

стереотипам нового общества, поиска точек взаимного сближения, интеграции национальных и культурных ценностей, которые будут приемлемыми. обеим сторонам, и создать в них «адаптационный потенциал», создать теоретические и методологические основы этих процессов.

Ключевые слова: социальная мобильность, парадигма, этнокультурная интеграция, масштаб мобильности, интеллектуальный потенциал, адаптационный потенциал, интенсивность мобильности, общесоциологическая закономерность, эффект привыкания.

Parmonov Farkhad,
Associate Professor of the Department
of Sociology and Psychology of Management
at the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan
Doctor of Social Sciences (DSc)
Khudayarov Ilkhomjon,
senior researcher at Namangan State University

ETHNOCULTURAL INTEGRATION TRENDS OF THE SOCIAL MOBILITY PARADIGM

ABSTRACT

Quantitative and qualitative indicators of ethnocultural changes in the paradigm of social mobility depend on the influence of objective conditions and subjective factors that determine it, as well as the division of mechanisms leading the process, tools and results to internal and external micro and macro levels. But this dependence is conditional and relative. Therefore, in the process of modern global integration, there is a need to improve the mechanisms for foreign migrants to get used to the stereotypes of the new society, to find points of mutual convergence, and to integrate national and cultural values that will be acceptable. both sides, and create “adaptation potential” in them, create theoretical and methodological foundations for these processes.

Key words: social mobility, paradigm, ethnocultural integration, scale of mobility, intellectual capacity, adaptation potential, intensity of mobility, general sociological regularity, habituation effect.

KIRISH

Dunyoda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar odamlar ongi va uning moddiylashgan shakli – sotsial mobilligini o‘zgartirmoqdami yoki, aksincha, kishilar ijtimoiy ongidagi o‘zgarish natijalari islohotlar samarasini belgilamoqdami, degan sxolastik bahs-munozarali savol chetga surib qo‘yiladigan bo‘lsa, har ikkala omil o‘rtasida korrelyatsion aloqadorlik va bog‘liqlikni ko‘ramiz.

Shu nuqtai nazardan biz rossiyalik tadqiqotchilarning “mobillik – nafaqat sotsial zinapoyadan yuqoriga chiqish, agrar jamiyatlarni modernizatsiyalovchi urbanizatsiya, balki siyosiy taqsimotga, fuqarolarning siyosiy afzalliklar haqidagi tasavvurlariga jiddiy ta’sir etuvchi omildir” deb hisoblaydi [1, – B.22].

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va tarixiy davr xususiyatlari, **bir tomondan**, jamiyatni tashkil qilgan subyektlar, xususan, migrantlar sotsial mobilligi xarakterini, ma’naviy-madaniy omillarining rivojlanish darajasini belgilab turgan; **ikkinchi tomondan**, bu omillarining migrantlar ijtimoiy munosabatlari va sotsial qiyofasi transformatsiyasiga ta’siri, ularning rivojlanish darajasini belgilovchi muhim sotsiologik ko‘rsatkich hisoblangan. Zero, ularning korrelyatsion aloqadorligi, har qanday jamiyatda umumsotsiologik qonuniyat maqomiga egaligini o‘rganish, shakllanayotgan “Migratsiya sotsiologiyasi” fani konturlarini konkretlashtirmoqda.

Lekin, sotsiologik tadqiqot natijalari bir-biridan nisbatan mustaqil bu hodisalarni migrantlar ijtimoiy munosabatlari va sotsial qiyofasi transformatsiyasiga madaniy omillar ta’siri kontekstida tahlil qilish ularning korrelyatsion aloqadorlik va bog‘liqlik dialektikasidagi tadrijiy o‘zgarishlar, obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar birligini ta’minlashga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda.

Bu jarayonlar mutanosibligidagi o'zgarishlar, *birinchidan*, ijtimoiy mobillikning obyektiv-retrospektiv asoslari va tarixiy genezisi tadrijiy rivojlanishiga; *ikkinchidan*, ijtimoiy ong tizimi va munosabatlaridagi o'zgarishlar, subyektiv omil (asosan, davlatning bosh islohotchilik roli va insonlar ijtimoiy mobilligi darajasi)ga bog'liqligini isbotlab bergan. Chunki, jahon tarixi, umuman, ijtimoiy mobillik fenomenini, xususan, migratsiya hodisasini maqsadga muvofiq "*kasbiy yo'naltirish*", uning obyektiv shart-sharoitlari va subyektiv omillari birligini ta'minlashga bog'liqligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotchi A.A.Nikiforovning ta'kidlashicha "Mehnat bozori rivojlanishining darajasi va bozorda ishtirok etuvchi kuchlar - tadbirkorlar, mehnatkashlar va davlat o'rtasida ma'lum davrda erishilgan manfaatlar muvozanatini aks ettiruvchi sotsial-iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan" [2, – B.48].

Migratsiya hodisasining ishchi kuchi narxi, talab va taklif konyukturasining o'zgartirishi (ya'ni, ko'tarishi yoki pasayishi) mehnat bozori shakllanishida muhim iqtisodiy imkoniyat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ish haqi darajasining vaqtincha, nisbatan pasayish tendensiyasi *umumsotsiologik qonuniyatdir*.

Chunki, hozirgi sharoitda, umuman, mehnat bozori, xususan, xalqaro mehnat bozori – ishchi kuchining "mehnatga bo'lgan qobiliyati"ni sotish va sotib olish infrastrukturasi tizimi bo'lib, uning tarkibida doimiy o'sib borayotgan migrantlar (to'g'rirog'i, ularning mehnatga layoqati) asosiy rol o'ynamoqda. Sotsiologlarning sotsial mobillik darajalarini aniqlashda maqom guruhlar, sinflar, individlar, oilalar, ijtimoiy guruhlar mobillik ko'rsatkichlari, ularning jamiyatdagi o'rni va roli; maqomi va mavqei; sotsial stratalari va harakat tiplari; turmush tarzi va mulk munosabatlari; faoliyat turlari va qadriyatlarini; hokimiyat taqsimotidagi mavqeiga qarab aniqlash ustuvor yondashuv bo'lib kelmoqda.

Lekin, ijtimoiy mobillik jarayoni darajalarini belgilashda jamiyat iqtisodiy ehtiyojlarini dominant mezon sifatida qarash asosida shakllangan umumiy tasavvurlar barcha tarixiy davrlarga xos bo'lib, sof miqdoriy ko'rsatkichlar, uni harakatlantiruvchi motiv va mexanizmlarini ham, usul-vosita va "texnologik" jarayonlarini ham, natijalari va istiqbollarini ham to'liq ko'rsatishga o'zlik qiladi. Ya'ni, oddiy statistik-sotsiologik ma'lumotlar bazasi bo'lib qolaveradi. Shuning uchun, ijtimoiy mobillik hodisasini, xususan, migratsiya fenomenini sof iqtisodiy statistika nuqtai nazaridan o'rganish, uning "konstruksiyasi"ni, funksional ahamiyatini yaxlit tasavvur qilish imkoniyatini chegaralaydi.

METODOLOGIYA

Sotsial mobillik tabiiy-ijtimoiy jarayon bo'lib, rivojlanishi doimiy davom etadigan obyektiv hodisa, uni to'xtatish mumkin emas. Sotsial mobillikning P.Sorokin tomonidan taklif etilgan ta'rifida "sotsial mobillik"ni individ yoki ijtimoiy qatlamning bir pozitsiyadan boshqasiga har qanday yo'l bilan o'tishi tushunilgan. Shuning uchun ham sotsial mobillikni sotsiologlar tomonidan tadqiq etishning maqsadi uning intensivligiga, yo'nalishlariga ta'sir qiluvchi omillarini o'rganishdan iborat metodologik va metodik vazifalar kompleksidan iborat qilib qo'yilgan.

Hozirgi kunda dunyoning yirik xalqaro mehnat bozorlari nisbatan turg'un shakllangan va amal qilmoqda [3], ya'ni AQSh, G'arbiy Yevropa, Avstraliya, neft qazib oluvchi Sharq mamlakatlari, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari, Lotin Amerikasi, Afrika, Rossiya xalqaro mehnat bozorlarining nufuzi yuqoriligicha saqlanib qolmoqda.

Bunda eng asosiy masala har qanday ijtimoiy ong shaklining manfaatlashishi, obyektivlashishi va "moddiylashishi"ni tashkillashtirish va boshqarish "texnologiyasi"ni yaratishda. Zero, har qanday iqtisodiy faoliyat va uning natijalari ijtimoiy ong shakllariga (ya'ni, huquqiy ong normalariga, axloqiy ong tamoyillariga, estetik ongning hissiy-ruhiy, gedonistik-evdomonistik mazmuniga, siyosiy ongning demokratik xarakteriga, gumanistik mazmuniga) asoslanmasa, sotsial mobillik g'oyasiga putur yetadi.

Ijtimoiy mobillik subyektlarining sotsial mavqei, maqomi darajalari (ijtimoiy-iqtisodiy foyda, professional-kasb strukturasi o'zgarishlari, migrantlar "sifat ko'rsatkichlari", ta'lim tizimi uzluksizligi, ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasi va faolligi) kabi ko'rsatkichlarni baholash zaruriyati "*mobillik shkalasi indeklari*"ni aniqlashni taqozo etadi. Buning uchun o'zaro bog'liq quyidagi ikki vazifani bajarish zarur:

1) sotsial mobillik subyektlarining ijtimoiy mavqei, maqomini belgilaydigan standart ko'rsatkichlarini yagona shkalaga keltirish;

2) sotsial mobillikni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishga mutasaddi siyosiy tashkilotlar va fuqarolik institutlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta'minlash zarur.

Hozirgi davr amaliyotida ijtimoiy mobillik standartlarini shkalalashtirishning ikki varianti qo'llanilmoqda. **Birinchi variantda** – ijtimoiy mobillikning “sof sifat” ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, ya'ni, muayyan maqom, sotsial mavqe, kasbiy-professional talablarni bajarish uchun zarur bilim darajasi va ixtisoslik malakasi, mehnatning “*intellektual sig'imi*” xarakteri bilan belgilanadi.

Nisbatan keng tarqalgan **ikkinchi variantda** – shkalalarni o'zaro farqlantiruvchi mezonlar sifatida mulk munosabatlari bilan bog'liq sinfiy tabaqalanish darajalari, stratifikatsiya pog'onalaridagi o'rni va roli qabul qilingan. Bunday yondashuvning avvalgisidan farqi ijtimoiy guruhlar mobilligi, nafaqat mehnat faoliyati xarakteristikasi asosida, balki guruhning sotsial munosabatlar tizimidagi holati ham, funksional roli ham e'tiborga olinadi.

Shkalalashtirilgan ijtimoiy mobillik standartlarini (xizmat qiluvchi (service) sinflarni ham) quyidagi darajalarga ajratish mumkin: **birinchi darajali “professionallar”** – davlatning yuqori darajali mansabdorlari va ma'murlari, boshqarishga mutasaddi muassasa, tashkilot rahbarlari va transmilliy kompaniya menedjerlari, yirik mulkdorlar; **ikkinchi darajali “professionallar”** – nisbatan o'rta mavqedagi davlat mansabdorlari va ma'murlari, kichik biznes va sanoat korxonalari rahbarlari-boshqaruvchilari, aqliy mehnat xodimlari; **uchinchi darajadagi “professionallar”** – oraliq sinflar bo'lib, boshqarish va kommersiyada aqliy mehnatga oid ishlarni bajaruvchi dasturchilar; xizmat ko'rsatish sohasida individual mehnat faoliyati bilan mashg'ul kishilar; kichik xususiy korxonaga egalari; yollanma ishchilari bo'lgan hunarmandlar; kichik mulk egalari; fermerlar va kichik arendatorlar; kichik texnik mutaxassislar; jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi malakali ishchilar; jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchi o'rta malakali va malakasiz ishchilar; qishloq xo'jaligi sohasida yollanma ishchilar sotsial stratalarda o'ziga xos mavqega ega ijtimoiy mobillik subyektlarini tashkil qiladi.

Shunday qilib, sotsial mobillik hodisasini individ maqomi darajasi kontekstida aniqlash uning darajasini ham, xarakterini ham, yo'nalishini ham konkretlashtiradi. Stratifikatsiyaning tarixiy aniqlangan tiplari ham sotsial mobillik ko'rsatkichlari hisoblanadi. Bu jarayonda shaxs sotsial maqomi o'zgarishi – **mobillik “distansiyalari”** (ya'ni, individ maqomlarining yuqori yoki quyi yo'nalishlarda bosib o'tgan miqdoriy ko'rsatkichlari) muhim ahamiyatga ega.

Bunda normal distansiya yuqori yoki quyi yo'nalishlarda 1-2 maqom zinalarini bosib o'tishga aytilsa, normal bo'lmagan distansiya (favqulodda, an'anaviy bo'lmagan yuksaklikka ko'tarilish yoki quyi bosqichga tushib qolishi – ijtimoiy mobillik jarayonida **sublimatsiya hodisasining** namoyon bo'lishi) tarzida qarash kerak. Individ ijtimoiy maqomlaridagi bunday o'zgarishlarni avlodlar alamashinuvining tarixiy bosqichlarida ham kuzatish mumkin.

ASOSIY QISM

Sotsial mobillik jarayon va natijalariga baho berishda, odatda, ularning **tezligi va intensivligi** kabi miqdoriy ko'rsatkichlari e'tiborga olinadi. Bunda **sotsial mobillik tezligi** deyilganda, individning muayyan vaqt ichida yuqori yoki quyiga harakatidagi vertikal distansiyasi, iqtisodiy ahvoli, professional mavqei, siyosiy pozitsiyasi, sinfiy mansubligi, stratadagi o'rnini o'zgartirish sur'atiga aytiladi.

Masalan, bir kishi institutni bitirib, mutaxassisligi bo'yicha ishni boshlagach, uch yil ichida bo'lim boshlig'i lavozimini egallashga ulguradi. Shu vaqt ichida u bilan birga institutni bitirib ish boshlagan kasbdoshi katta muhandis lavozimiga erishadi. Bu yerda birinchi kishidagi mobillikning tezligi yuqori, chunki u shu vaqt ichida ko'proq **maqom darajalarini** (karera pog'onalarini) bosib o'tgan. Boshqa misol, shaxs muayyan sabablarga ko'ra, nisbatan yuqori maqomlar ierarxiyasida avval egallagan ijtimoiy mavqeidan quyiga tushishi mumkin.

Mobillik intensivligi deyilganda, muayyan vaqt ichida sotsial pozitsiyasini vertikal yoki gorizontal yo'nalishlarda o'zgartirgan individlarning ijtimoiy harakat ko'lamini va natijasi tushuniladi. Ko'pincha, mobillik jarayoni parametrlarini aniqlashda uning tezligi va intensivligi aloqadorligi

nuqtai nazaridan qarashga zaruriyat tugʻiladi. Bunday vaziyatda, muayyan sotsial birlik uchun mobillikning belgilangan (toʻgʻrirogʻi, aniqlangan) paradigmalari umumiy indeksi va koeffitsienti koʻrsatkichlaridan foydalaniladi.

Shu yoʻl bilan bir jamiyatni boshqasidan yoki mobillik (davr va barcha miqdor koʻrsatkichlari boʻyicha yuqori yoki quyi) darajalarini qiyoslash, solishtirish mumkin. Bunday indeks va koeffitsentlarning iqtisodiy, professional yoki siyosiy faoliyat boʻyicha alohida hisoblab chiqilishi hamda korrelyatsion aloqadorligini aniqlash bu jarayonni modellashtirish va prognozlashtirishda katta ahamiyatga ega.

Xullas, jamiyatlarning ierarxik tuzilishi va stratalari tahlili, ularning doimiy ravishda gorizont va vertikal yoʻnalishlarda tebranishlarini (hatto, yuqorida aytilgan *sublimatik jarayonlar* mavjudligini) koʻrsatmoqda. Yaʼni, sotsial mobillik jamiyatlarning “ochiq” yoki “yopiq”ligi koʻrsatkichi hisoblanadi. “Yopiq” jamiyatga misol sifatida Hindistondagi kastalar, varnalar tizimini yoki feodal jamiyatini aytish mumkin. Aksincha burjua-demokratik jamiyatlar “ochiq”ligi sababli nisbatan yuqori darajadagi ijtimoiy mobilli koʻrsatkichlari bilan ajralib turadi.

Ayniqsa, inqilob va sotsial kataklizmlar davrida jamiyat sotsial strukturasidagi tub oʻzgarishlarni determinlashtiruvchi obyektiv shart-sharoit va subyektiv omillar elitalarni quyiga tushirish, turli yuqori tabaqalar oʻrniga yangi sinflar va sotsial qatlamlar paydo boʻlishida taʼlim tizimi yangi ommaviy-guruh shakllanishida vertikal mobillik *“sotsial lift”* rolini bajaradi.

Sotsial mobillik individdan yangi (aksariyat holatlarda, noanʼanaviy) sotsiomadaniy muhitga moslashishni talab qiladi. Ammo, tarixiy shakllangan, anʼanaviy sotsiomadaniy dunyosini yoʻqotgan inson yangi sotsial qatlam norma va qadriyatlarini qabul qila olmasdan ikki madaniyat oʻrtasida qolgan marginal shaxs shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bu jarayon etnik va hududiy migrantlar uchun ham xarakterli boʻlib, yangi sotsial muammolarni vujudga keltirib chiqarishi mumkin.

Sotsial mobillik, *bir tomondan*, (hatto, mikrodarajada ham) obyektiv va subyektiv omillar birligi, parametr va paradigmalari umumiyliigi bilan belgilanadi. *Ikkinchi tomondan*, muayyan individ yoki oilaning sotsial-professional maqomi mikrodarajadagi obyektiv omil tarkibiga kiradi. Bu darajadagi subyektiv omil esa konkret oila yoki individning yangi sotsiumga kirishishida tarixiy tarkib topgan oilaviy anʼanalar, qadriyatlar yigʻindisi va ularning modernizatsiyasi bilan belgilanadi.

Shuning uchun, sotsial mobillik koʻrsatkichlarini tadqiq etib, ular haqida ishonchli ilmiy xulosalar olishda sotsial transformatsiya jarayoni dinamikasi, yoʻnalishlari va hajmiga taʼsir etuvchi omillarni, ularni baholash mezonlarini eʼtiborga olish zarur.

Dj.Urri sotsial mobillik subyektlari – individlarning yuqoriga (vertikal yoʻnalishdagi) harakati koʻplab “toʻxtash”lar orqali yuz berishi tufayli murakkab jarayon hisoblanishini aytgan edi [4, – B.7]. Uning fikricha, har qanday individning bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga oʻtishi tezlik bilan emas, koʻpgina toʻxtashlar (depressiyalar) bilan yuz beradi. Masalan, inson avval buxgalter boʻladi, keyin tajriba va bilimi koʻpayishi bilan bosh buxgalter, katta oʻqituvchi, dotsent, professor yoki akademik darajasiga yetishi mumkin.

Shuningdek, odamlar qishloqdan shaharga taʼlim olish va kasb egallash maqsadida keladilar. Ularning muvaffaqiyatlari qishloqda qolgan qarindoshlarini shaharga *“tortish kuchi”ga* aylanadi va sotsial mobillik koʻlamini kengaytirishga xizmat qiladi. Yaʼni, industrallashuv, sanoat inqilobi, axborotlashuv, urbanizatsiya jarayonlari jamiyat ijtimoiy mobillik tizimida yangi yoʻnalishlarni vujudga keltirdi, migrant ijtimoiy maqomini, uning kelib chiqishiga emas, balki maʼlumoti, kasbi va daromadi darajasini belgilovchi ijtimoiy mobillik koʻrsatkichlari bilan bogʻliq qilib qoʻydi.

Ishlab chiqarish sohalari diversifikatsiyasi, modernizatsiyalashuvi va zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan jihozlanishi ijtimoiy mobillik darajalariga, mehnat migrantlari “sifati”ga jiddiy talablar qoʻyadi. Chunki, ishlab chiqarish jarayoniga yangi fan innovatsiyalarini, texnologiyalarni qoʻllash, migrantlardan muayyan nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni talab qiladi. Boshqacha aytganda, texnologiyalar sikli rivojlanishiga mos ravishda nufuzi past “arxaik” kasblar bilan band migrantlar oʻz anʼanaviy faoliyatlaridan voz kechib, boshqa sohalarga oʻtib ketadi. Yaʼni, nisbatan past ijtimoiy mavqei va maqomini yuqoriroq darajaga oʻzgartiradi.

Sotsial mobillikning shakl va mazmun oʻzgarishlari *fluktatsiyasini* (lotincha fluctuatio – tebranish), oʻzi yashagan davr Gʻarb jamiyatidagi vertikal va gorizont mobillik shakllarini sotsial

mobillikning intensivligi, hajmi, umumiy tamoyillari, oqibatlari, aholi irqiy tarkibiga, inson psixologiyasi hamda ijtimoiy jarayonlar va jamiyat tashkillashuviga ta'sirini batafsil o'rganishi asosida chiqargan ilmiy-nazariy xulosalari sotsial mobillik yo'nalishlari va xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Davlatlarning barqaror rivojlanish darajasini belgilaydigan mezonlar tizimida fuqarolar sotsial mobilligini yuksaltirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar tizimi muhim ko'rsatkichga aylanmoqda. Zero, ularning sotsial mobilligini, xususan, migratsiya harakatlariga ko'maklashishi yoki to'siqlar yaratishi, jamiyatlarning an'anaviy shakllangan sotsial stratifikatsiyasini saqlab qolishi yoki pozitiv o'zgartirishlarida namoyon bo'ladi.

Eng muhimi, zamonaviy rivojlangan jamiyatlar mehnat bozorida sog'lom raqobatga yo'l ochib, migrantlar uchun yuqori maqomga erishish imkoniyatini yaratadi. Jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlari modernizatsiyalashuvi sotsial mobillikka ko'maklashadi. Lekin, shu bilan bir qatorda, migrantlarning sotsial mobilliklari turli ruhiy-psixologik muammolarni ham vujudga keltirishi mumkin.

Bu ularning ijtimoiy mobillikka ehtiyoji va uni qondirish imkoniyati o'rtasidagi ziddiyatda namoyon bo'ladi. Chunki konkret mehnat sohasida migrant ijtimoiy mobilligi maqomi qanday etnik birlikka, diniy konfessiyaga, demografik qatlamga, sotsial toifaga mansubligi, uning ijtimoiy mobilligiga (yashirin yoki oshkora) imkoniyat yaratadi yoki to'sqinlik qiladi. Intellektual jihatdan yuqori taraqqiy topgan davlatlar XXI-asrda ta'lim tizimini rivojlantirishni migratsion jarayonlar va ijtimoiy mobillikni optimallashtirishning muhim strategik vazifasi, deb qaramoqdalar. Zero, «Ijtimoiy-pedagogik jihatdan oldindan ko'ra bilish va harakat qilish (prognozlash, loyihalashtirish, dastur tuzish, rejalashtirish, qabul qilingan dastur va loyihalarni amalga oshirish) nazariya va amaliyot, ilmiy tafakkur va tajriba, an'anaviy va yangicha qarash kabilarning o'zaro birgalikdagi harakatining umumiy qonuniyatlari butun dunyoda, ayniqsa, alohida olingan mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan belgilanadi» [6, – B.12].

Biz bu jarayonda har bir xalqning migratsiya natijasida ma'naviy integratsiyalashuvi va unifikatsiyalashuviga qaramasdan, milliy-mental identifikatsiyalashtiruvchi xususiyatlarini saqlab qolishi ham alohida ahamiyat kasb etishini nazarda tutishimiz lozim. Zero, migrantlar, tabiatiga ko'ra, jamiyatning ishbilarmon va harakatchan ijtimoiy mobil a'zolari hisoblanadi.

Shu sababdan ham, migratsiyaga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf qilish, yumshatish usuli sifatida qaralmoqda. Demografik muammolar vujudga kelishi va globallasuvi [7] rivojlangan mamlakatlarda migrantlarga, ularning soni va sifatiga ehtiyoj oshib borish tendensiyasi jahon mehnat bozorida migratsiyaning kelajagi raqobatli kechishini ko'rsatmoqda.

Migrantlarning muayyan sotsiomuhitga adaptatsiyasi uning global integratsiya jarayoni bilan bog'liq muammolari yechimiga bosqichma-bosqich, kompleks-tizimli yondashuvni taqozo qiladi. Bunda migrantlarning etnomadaniy munosabatlari integratsiyasiga oid davlat dasturlarini, ularni amalga oshiradigan davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish bilan bog'liq turli mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Rossiyaning milliy masalalar bo'yicha Federal agentligi rahbari I.V.Barinovning: “Rossiyada xorij fuqarolari o'zlarini begona va yolg'iz his etmasligi uchun migrantlarning sotsiomadaniy adaptatsiyasi bo'yicha yagona yondashuv konsepsiyasi ishlab chiqilishi zarur” [8], degan fikrida asos bor.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, migratsiya jarayonlari, **bir tomondan**, jamiyatlar iqtisodiy o'sishiga, millatlar assimilyatsiyalashuviga, ijtimoiy munosabatlar globallasuviga, **ikkinchi tomondan**, marginal (manqurt) shaxslar, “omnaviy madaniyatlar”, kriminal elementlar shakllanishi va transformatsiyasiga olib kelgan. Shuning uchun, migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning ziddiyatli xarakteri – muhim muammolari mavjudligini ham, yangi ijobiy natijalarini vujudga keltirish imkoniyatlarini ham e'tiborga olish zarur.

Aksariyat hollarda, migrantlar ekspluatatsiya qilinib, huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning kelgan mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ba'zi hollarda migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning tub aholisi ish joylaridan mahrum etiladi. Bu esa mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa sabablarga ko'ra (masalan, urbanizatsiya jarayonining stixiyali boshqarilishi

oqibatlarini), migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan o'rganishni talab qiladi.

XULOSA

Xulosa qilganda, dunyo mamlakatlari tajribalari migratsiya jarayonlarini (ayniqsa, ichki migratsiyani ma'muriy tartibga solish, boshqarish bilan) urbanizatsiya hodisasini optimal tashkillashtirish qiyin vazifa ekanligini ko'rsatmoqda, ya'ni:

birinchidan, mamlakatda urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillarini uyg'unlashtirish va parametrlarini mahalla, davlat va mintaqalar bo'yicha optimallashtiruvchi "migratsion yo'l xarita"larini ishlab chiqishga;

ikkinchidan, global urbanizatsiya jarayonida nomuntazam stixiyali migratsiyani tartibga solish, nazorat qilish hamda boshqarishning siyosiy-sotsiologik mezonlarini, sotsio-madaniy, huquqiy mexanizmlarini, fuqarolik institutlari faoliyatini va universal madaniy omillar va axloqiy normalarini tizimli takomillashtirish;

uchinchidan, ijtimoiy sohada sotsial mobillikning zonal, regional va global darajada urbanizatsiya va migratsiya jarayonlari intensivlashuvi mahalliy, milliy, hududiy va umuminsoniy obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillarini muvofiqlashtirishga;

to'rtinchidan, aholining ijtimoiy-demografik strukturasi differensial yondashib, ayniqsa, yoshlarni migratsiyaga ma'naviy-ruhiy tayyorlashning zamonaviy psixologik, pedagogik, didaktik-innovatsion yechimlarini topish "texnologiyasi"ni yaratishga;

beshinchidan, urbanizatsiya va migratsiya hodisalari intensivligini determinlashtiruvchi shahar va qishloq aholisi turmush darajasini, fikrlash tarzining sotsial mobilligi dinamikasidagi muhim farqlarni bartaraf etishning o'zgarishlarini muvofiqlashtirish;

oltinchidan, migratsiya jarayonlarini boshqarishga mutasaddi davlat tashkilotlari, ommaviy fuqarolik institutlari faoliyatlarini nazariy-metodologik asoslar bilan ta'minlashiga ta'sir etuvchi omillarning sotsio-madaniy xususiyatlari, mezonlarini aniqlashga;

yettinchidan, global darajada migratsiya jarayonlarini boshqarishga mutasaddi mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar faoliyatini, ularning qonuniy-huquqiy asoslarini unifikatsiyalashtirish hamda bajarilishini ta'minlashda integrativ aloqalarini mustahkamlash;

sakkizinchidan, migratsiya hodisasi ilmiy tadqiqoti sohasida aholini ro'yxatga olish, uning dinamik ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida yaqin, o'rta va uzoq muddatlarda istiqbollari aniqlash, davlatlar ijtimoiy-demografik siyosati samaradorligini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Социальная мобильность в усложняющемся обществе: объективные и субъективные аспекты, – М.: ФНИСЦРАН, 2019. – С. 22.
2. Никифорова А.А. Рынок труда: занятость и безработица. – М.: Международные отношения, 1991. – С. 48.
3. Zong J., Batalova J. and Hallock J. Frequently requested statistics on immigrants and immigration in the United States//www.migrationpolicy.org /article/ frequently-requested-statistics-on-immigrants-and-immigration-in-the-united-states.
4. Шеллер М. Новая парадигма мобильностей в современной социологии / М.Шеллер // Социологические исследования. – 2016. - №7. – С. 7.
5. Сорокин П.А. Социальная мобильность. – М., Academia 2005.
6. ¹Абдуллаев Ю. Жаҳон олий мактаби: қиёсий таҳлил. Тошкент: F.Фулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001. – 12 б.
7. Shu o'rinda BMTning 10 ta global muammolarni klassifikatsiya qilish tartibida yadro urushi, ekologiya, xom ashyo resurslari muammolaridan keyin demografik muammoning to'rtinchi o'rinda turishiini eslatish joiz.
8. <http://ru.sputniktj.com/migration/20170127/1021590227/rossiya-migranti-adaptacija.html>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000